



AVTOMOBILSOZLIK KORXONALARIDA YIG'ISH VA KONTAKT PAYVANDLASH JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Qosimov Karimjon Zuxriddinovich

And.M.I., "T.M.J" kafedrasi professori, t.f.d., professor.

Asadbek Zuhriddinov Sherzodbek o'g'li

And.M.I., "T.M.J" yo'nalishi talabasi.

Kirish: Ma'lumki hozirgi kunda avtomobilarning kuzov qismini yig'ish jarayonining deyarli 80-90% qismi kontaktli payvandlash mashinalari orqali amalga oshiriladi. Sababi ushbu usulda mahsulotning ishlab chiqarish miqdorini qolgan uslublariga qaraganda sezilarli darajada oshirish mumkin. Kontaktli payvandlashdagi metallarning bir- biri bilan atomlararo bog' hosil qilib birikish jarayonining soniyalar ichida ro'yberishi yuqorida aytilgan aytilgan imkoniyatni yaratadi. Mazkur usul orqali ishlab chiqarish korxonalarida avtomatlashtirilganlik darajasini ortishi mahsulot sifatini saqlagan holda uning miqdorini oshirish yo'lidagi ishonchli strategya hisoblanadi. Bu borada butun jahondagi mashxur Mersedes Besnz, Tesla, BMW kabi rivojlangan avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning aynan manashu qismini tahlil qiladigan bo'lsak, ularda ushbu jarayon deyarli to'liq avtomatlashtirilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Kuzatuvlar natijasi avtomatlashtirilganlik darajasining yuqoriligi mahsulot ishlab chiqarish tezligiga qanchalik darajada ta'sir qilishini ko'rishimiz mumkin. Bu esa korxonaning daromad manbayinig o'sishida eng asosiy omillardan biridir.

Asosiy qism

Tesla kompaniyasi 2022-yilning so'ngi uch oyida avtomobil ishlab chiqarish sanog'i 405 000 donaga va bu ko'rsatkich kompanyaga daromadni 1.1 trillion dollargacha yetib borishga sabab bo'ldi.(1-rasm)

BMW kompaniyasi 2022-yilda mahsuldorlik 450 000 dona avtomobilni tashkil qilgan. Ta'kidlash joizki ushbu natija o'tgan yildagidan 70 000 donaga ko'p hisoblanadi

Mersedes Benz kompanyasida joriy yilning 10-yanvar kuni chop etilgan kompaniyaga oid habarga ko'ra 2022-yilda ishlab chiqarilgan avtomobillar soni qariyb 540 000 donani tashkil etgan.

Uzauto Motors kompanyasining 2022-yildagi ishlab chiqarilgan yillik avtomobil miqdori 104 000 donani tashkil qildi. Bu umumiyl ishlab chiqarish hajmining 1/3 qismini tashkil qilar ekan.

Kontaktli payvnadlash usulida payvandlash jarayonida payvand brikmalarning hosil bo'lishida ulardan zaharli gazlar ajralib chiqishi, ishchini kayfiyati psixologik



holatining o'zgarishi, tajribasizlik tufayli kelib chiqadigan hatolar mahsulot miqdori sur'atiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Garchi tirik kuch orqali ishlab chiqarishni tashkil etish arzon bo'lsa ham, inson omili eng muhim qismi bo'ganligi tufayli. Sog'lijni saqlash uchun bu borada ishlab chiqilgan standartlarga binoan bo'lsagina faolyat ko'rsatishga ruhsat beriladi. Avtomatlashtirish orqali yuqorida zikr qilingan muammolarni to'la to'kis hal qilgan holda jarayonning uzluksiz va stabil kechishia erishish mumkin. Faqat buning uchun birqancha talab qilinadigan mantiqiy ketma-ketlikning aniqlilik darajasi tirik kuch ishlovchi holatidan yuqori bo'lishi kerak.

- Bir jarayondan ikkinchisiga o'tish qisqa va yaqin bo'lishi.
- Jarayon uzluksizligi ta'minlanishi.
- Dasturiy va mexanik qismining stabilligini ta'minlanishi.

Kontakli payvandlash jarayonini to'liq avtomatlashtirish ishlab chiqarish quvvatini maksimal holatga olib chiqqan holatda mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek avtomatlashtirish, korxonaning ishlab chiqarish jarayonida sodir bo'ladigan muammolarni bartaraf qiladi.

Xulosa

Yuqorida berilgan manbalar shuni ko'rsatadi-ki, ishlab chiqarishda to'liq avtomatlshirishni tashkil etgan kompaniyalarning yillik mahsulot miqdori yarim avtomatlshirilgan tizimga qaraganda 2-3 barobarga ko'p ekanligini ko'rsatmoqda. Payvandlash postlaridagi stabil va uzluksiz jarayon asosiy diqqatni boshqa, ajraluvchan brikma hosil qiluvchi brikma uzellarga qaratish bilan mahsulot hajmini keskin ko'tarilishiga xizmat qiladi. Katta hajmdagi mahsulot tannarxini pasaytirib bozorda tovarning raqobatbardoshliligini oshiradi.

Foydalilanilgan adabyotlar.

1. Mahmud Abralovich Abralov, Nikolay Sergeyevich Dunyashin "Kontaktli payvandlash texnologiyasi va jihozlari" Toshkent, Turon Iqbol 2006-yil.
2. Kosimov K.Z, Yuldashev Sh.X "Erosion parts of the working surface of the metal to weld sheeting with the metal powder and surpassing solid for metals".
3. Тохиржон.Исабоев: PAYVAND BIRIKMLARANI MEXANIK XUSUSIYATLARINI [Journal]. - АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ : Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyani, 2021-yil йил. - 27-29 октябрь : Vols. 1-2.
4. Мехмонович Исабоев Тохиржон: ВОЗДУХОЧИСТИТЕЛЬ ПРОМЫШЛЕННОГО ПОМЕЩЕНИЯ [Журнал]. - АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ : Международной научно-практической конференции по теме, 2021 год г.. - 27-29 октябрь, : Т. 1-2-том.



5. M.A.Abrolov, N.S.Dunyashin, Z.D.Ermatov; O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif markazi, -T.: "ILM ZIYO", 2007-240b.

6.https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Finsideevs.com%2Fnews%2F624493%2Fgiga-texas-said-target-production-75000-model-y-q1-2023%2F&psig=AOvVaw0rhfuWofM6h_IafMUOwB-R&ust=1676594819006000&source=images&cd=vfe&ved=0CBEQjhxqFwoTCIDgwsXomP0CFQAAAAAdAAAAABAE

7.<https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Fwww.wired.co.uk%2Farticle%2Fpower-plant&psig=AOvVaw2WCzSQdSfef8vLsTNe8qLU&ust=1676594167968000&source=images&cd=vfe&ved=0CBEQjhxqFwoTCKiO7LHrmP0CFQAAAAAdAAAAABAD>

8.https://www.google.com/url?sa=i&url=https%3A%2F%2Fwww.quora.com%2FIs-Mercedes-Benz-capable-of-making-a-vehicle-that-can-compete-with-Rolls-Royce&psig=AOvVaw0rYicnxD6oj8Em_4icKML8&ust=1676595259587000&source=images&cd=vfe&ved=0CBEQjhxqFwoTCLDHwJfqmP0CFQAAAAAdAAAAABAR

9.https://uzautomotors.com/articles/uzautomotors_ishlab_chiqarish_xajmini_oshirdi

